

**QORAQALPOG`ISTON SHAROITIDA PIYOZ EKISH MUDDATI VA USULLARI**

X.Matiyakubov

Ilmiy rahbar: q.x.f.n, dotsent

Magistr: D. Hayitboyev

Qoraqalpog`iston qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti

**Annotatssiya**

Qoraqalpog`istonda piyozning ahamiyati, vazifasi va ekish usullarini o`rganish hamda piyozning xosildorligini oshirish.

**Kalit so`zlar:** Piyozni ekishning turli xil muddatlarini o`rganish, ko`chatlab ekish va urug`dan ekishning ahamiyati.

**Аннотация**

Изучение значения, функции и способов посадки лука в Каракалпакстане и повышение урожайности лука.

**Ключевые слова:** Изучение различных сроков посадки лука, значение посадки рассады и посадки из семян.

**Annotation**

Studying the importance, function and planting methods of onions in Karakalpakstan and increasing the productivity of onions.

**Keywords.** Studying different periods of planting onions, the importance of planting seedlings and planting from seeds.

**Introduction**

Qoraqalpog`istonda piyoz uch muddatda ekiladi: erta bahorda - fevral oxiri martning boshlarida; yoz-kuzda-avgust -sentyabrda va qishdan- noyabr oxiri dekabrning boshlarida ekiladi.

Erta bahorda ekilgan piyoz yoz-kuz va qisholdi ekilgandan qishda yaxshi saqlanadi. Shuning uchun qishda saqlash uchun foidalaniladi.

Piyoz ekish muddatlari va usullari.

1-muddat. 15 – mart;

*Birinchi usul:* Ko`chat usulida pushtaga ekish.

*Ikkinchi usul:* Tekis joyga yoppasiga ekishni o`rganish.

2-muddat. 30 - mart;

*Birinchi usul:* Ko`chat usulida pushtaga ekish.

*Ikkinchi usul:* Tekis joyga yoppasiga ekishni o`rganish.

3 – muddat.

*Birinchi usul:* Ko`chat usulida pushtaga ekish.

*Ikkinchi usul:* Tekis joyga yoppasiga ekishni o'rganish.

Shu vaqtlar oraligida ekilganda piyozning hosildorligi o'rganiladi va taqqoslanadi. Piyoz o'simliklarning ekish usulni o'rganish maqsadi amalga oshirilmoqda

Kutilayotgan natijalar. Qoraqalpog'iston respublikasi tuproq iqlim sharoitida piyozning eng maqbul ekish muddatlari va usullari bo'yicha ilmiy yondashuv orqali ekinni yetishtirishning agrotexnikasini o'rganish va ishlab chiqishdan iborat. Respublikada o'rganilmagan piyozni yetishtirishning ko'chat usulini kengroq o'rganish va yuqori hosildor sifatli navni tanlab ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat.

Shu vaqtlar oraligida ekilganda piyozning hosildorligi o'rganiladi va taqqoslanadi. Piyoz o'simliklarning ekish usulni o'rganish maqsadi amalga oshirilmoqda

Kutilayotgan natijalar. Qoraqalpog'iston respublikasi tuproq iqlim sharoitida piyozning eng maqbul ekish muddatlari va usullari bo'yicha ilmiy yondashuv orqali ekinni yetishtirishning agrotexnikasini o'rganish va ishlab chiqishdan iborat. Respublikada o'rganilmagan piyozni yetishtirishning ko'chat usulini kengroq o'rganish va yuqori hosildor sifatli navni tanlab ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat.

### **Piyozning umumiy belgilari uchun 2022-yil dalla tajribasida olingan natijalar jadvali.**

**Parvarishlash.** Piyoz unib chiqqandan so'ng o'simlik bóyi 5-6 sm

| №  | Nav nomlari         | Unib chiqish (kun) | Qósh bargchalarning paydo bólishi (kun) | Piyozning nurish bólish mudati (kun) | Bir dona pioz vazni /gr | Umumiy xosil t/ga |
|----|---------------------|--------------------|-----------------------------------------|--------------------------------------|-------------------------|-------------------|
| 1  | Kaba                | 8                  | 27                                      | 56                                   | 80,2                    | -                 |
| 2  | Karatol             | 7                  | 32                                      | 61                                   | 99,9                    | -                 |
| 3  | Volf                | 10                 | 37                                      | 63                                   | 90,3                    | -                 |
| 4  | Oqdur               | 15                 | 31                                      | 60                                   | 85,4                    | -                 |
| 5  | Ravak               | 12                 | 33                                      | 59                                   | 90,8                    | -                 |
| 6  | Rador               | 14                 | 36                                      | 64                                   | 80,7                    | -                 |
| 7  | Leone               | 9                  | 29                                      | 56                                   | 85,1                    | -                 |
| 8  | Mahaliy oq piyoz    | 8                  | 30                                      | 55                                   | 80,9                    | -                 |
| 9  | Mahaliy qizil piyoz | 7                  | 28                                      | 55                                   | 95,3                    | -                 |
| 10 | Luiza F1            | 9                  | 29                                      | 59                                   | 80,8                    | -                 |
| 11 | Manas F1            | 10                 | 32                                      | 66                                   | 90,3                    | -                 |
| 12 | Robin F1            | 13                 | 33                                      | 63                                   | 83,7                    | -                 |
| 13 | Ranko               | 11                 | 31                                      | 61                                   | 89,7                    | -                 |

bólganda o'simliklar orasi 3-5 sm qoldirilib birinchi o'toq va yagona o'tkaziladi, ikkinchi yagona va o'toq o'simlik bóyi 15-20 sm bólganda o'tkazilib osimliklar orasi 7-8 sm qoldiriladi.

Agarda begona o'tlar kópaysa, uchinchi o'toq ham o'tkaziladi. Piyozni o'suv davrida qator oralari KRN-2, 8 A, KRN-4, 2, KOR-4, 2 kul'tivatorlari bilan 4-5 martagacha yumshatiladi. Piyoz uchun tuproq namligi dala nam sig'imiga nisbatan 75-80 % bólishi kerak.

**Sug'orish.** Piyoz bargning sathi kichik bólganligi uchun suvni kam bug'lantiradi. Piyoz urug'ining unish va piyozboshi shakllanishida namni kóp tolab qiladi. O'suv davrining oxirida

uning suvga talabchanligi keskin kamayadi. Bu davrda nam kóp bólsa, piyozboshning yetilishi kechikadi va yaxshi saqlanmaydi.

Avgustda ekilgan piyoz kuzdayok, kech kuzda va bahorda ekilganlari esa aprel oylaridan boshlab, bahorgi yo'ingarchilik to'xtagandan so'ng sug'oriladi. Yer osti suvlari chuqur joylashgan bóz tuproqli yerlarda piyoz may, iyul oylarida xar 8-10 kunda sug'oriladi. Sóngra piyozbosh ósishdan to'xtaganda xar 12-15 kunda bitta marta sug'orilib, pishishiga bir oy qolganda esa sug'orish to'xtatiladi. Yer osti suvi chuqur joylashgan bóz tuproqli yerlarga ekilgan piyoz, taxminan 12-13 marta, yer osti suvi 1-2 m chuqurlikda joylashgan uchastkalarda 7-9 marta sug'oriladi.

Avgustda ekilgan piyozlarning bitta qismi, odatda gulpoya chiqarib erkaklab ketadi, bularni oz vaqtda yulib tashlanmasa, piyozboshi mayda bólib, hosil kamayadi.

**Nóshdan piyoz yetishtirish.** Piyoz yetishtirishning boshqa usullariga nóshdan, mayda piyozboshlardan, kóchatdan barra piyoz yetishtirish kabilar kiradi. Bazan kuzda (oktyabr - noyabr oylarlarida) yoki erta bahorda nósh piyoz (mayda piyozboshlar) ekiladi. Nósh piyoz kuzda ekilgani ma'qul, chunki mayda piyozboshlarni qishda saqlash kóp chiqitga chikishga olib keladi. Nósh piyoz pushtalarga yoki ochiq dalalarga (markyor tugallama bóyicha) bóynigacha botirib ikki katorlab lenta shaklida ekiladi. Bunda lentalar orasi 50-60 sm va qatordagi piyozlar orasi 10 sm dan qilinadi.

Nóshdan bosh piyoz yetishtirish uchun ósuv davri mobaynida gulpoyalarni muntazam ravishda yulib turish kerak. Nóshdan ekilgan piyoz urug'idan yetishtirilgan piyozga qaraganda begona o'tdan kam bo'ladi va yagonalanmaydi. Boshqa parvarishlash tadbirlari muddatda ótkaziladi. Piyoz parvarishi begona ótlarni yóqotish, qator oralarini ishlash va sug'orishdan iborat. Avgustda yo'ingarchilik boshlanmasdan piyozlar lavlagi kovlagichlar bilan yig'ib olinadi, so'ng quritiladi, barglari kesilib, katta-kichikligiga karab saralanadi.

Mayda piyozboshlar 18-20°S harorat va 65-70 % havo namligi sharoitida saqlanadi. Kelgusi yili bahorda mayda piyoz (SUN-8) seyalkada qator oralari 45 sm dan qilib ekiladi. Ekish qalinligi va piyozning yirikligiga qarab xar bitta metr yerga 15-25 tadan piyozcha ekiladi, shunda gektariga 5-6 s dan 10-12 smgacha mayda piyoz ekiladi. Piyozni ósuv davridagi parvarishi, begona ótlarni yóqotish, qator oralarini yumshatish, oziqlantirish, sug'orish va gul poyalarni yulib turishdan iborat.

**Ko'chat qilib piyoz yetishtirish.** Piyozning kechpishar navlari, bazan kóchatdan yetishtiriladi. Buning uchun piyoz urug'i kóchat qilishdan bir yarim ikki oylar ilgari yarim issiq kóchatxonalarga, har bitta kvadrat metr maydonga 20-25 grammdan ivitilgan xamda nishlatilgan holda ekiladi. Maysalar parnik xaroratini kunduzi 20 -25°S va kechasi 8-10°S qilib turish xamda yagona qilish va sug'orish yóli bilan parvarsh qilinadi. Tayyorlanayotgan ko'chat 30-35 kunda tayyor bo'ladi va dalalarga chiqarib ekiladi. Har bir o'simliklar orasi 15x15 yoki 15x20 bo'ladi. Ko'chatlab ekishning avzallik jihati erta yetirish va yaxshi hosil olish.

**Barra piyoz etishtirish.** Barra piyoz - vitaminli mahsulot bólgani uchun erta bahorda, xali yangi sabzavotlar yoki vaqtda aholini u bilan taminlashning ahamiyati katta. Barra piyoz dalaga urug' yoki nósh piyoz ekish yóli bilan etishtiriladi.

Barra piyoz urugdan etishtirilganda urug` avgust o'rtalarida, nóshdan etishtirilganda esa sentyabrning oxiri oktyabrda ekiladi. Piyoz kuzda kókarib chikadi, qishlaydi, aprel oylarida esa xosili yigib olinadi.

Piyozlar pushtalarga, 30 -40 sm kenglikdagi lentalarga ekiladi, lenta orasiga urug yoki mayda piyoz sochiladi va tuprok yoki chirindi bilan kómiladi. Yirik piyozboshlar tuprokka botirib o'tkaziladi. Katta moydonlarda piyoz don-sabzavot seyalkasi 35-40 sm kenglikdagi lentalarga ikkitaladi. Bunda seyalka soshniklari bitta -biriga yaqinroq (7-8 sm) o'rnatiladi. Har gektar erga 25-30 kg urug` yoki 2-4 t mayda piyozbosh ekiladi. Piyozlar kuzda bitta necha marta sug`oriladi. Qishki sovuqlar boshlanishidan odin esa pushtalarning ustiga chirigan góng sochib qo`yladi. Bu kishda uni sovuq urishdan saqlaydi, bahorda esa sochgan go`ng os`imliklarga ozik manbai bólib xizmat kiladi. Barra piyoz ildizi bilan sugurib yigishtiriladi. Yaxshi parvarish kilinganda xar gektar erdan 350-400 st va undan ko`p hosil olinadi. Bosh piyoz urug`i etishtirish texnologiyasi. Birinchi yil urug`lik piyozbosh etishtirish uchun urug erta bahorda ekilib, odatdagi texnologiya asosida sifatli parvarish qilinadi. Urug`lik uchun yaxshi etilgan, yirikligi lunjlaracha, shakli varangi navga xos piyozboshlari tanlab olinadi. Urug`lik piyozboshlar 2-8°S haroratda 70-80 havo namligida qorong`i joylarda yaxshi saqlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Zuyev V.I., Qodirxo`jayev O.Q., Adilov M.M., Akromov U.I. Sabzavotchilik va polizchilik. Toshkent, 2009. – b. 124-135.
2. O`zbekiston Respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo`jalik ekinlari Davlat reyestri. – Toshkent, 2020. – b. 55.
3. Turkiya Respublikasi “Oziq-ovqat qishloq xo`jaligi vazirligi” hamda “Denizbank” hamkorligida tayyorlangan “100 ta kitob”dan iborat to`plami.